

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмудалиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдйбоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети


Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

1. Nodira Babadjanova O‘ZBEKISTON MILLIY TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA IJTIMOIIY BARQARORLIK VA MAMLUKAT TARAQQIYOTINI TA‘MINLASHDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – MUHIM OMIL.....	5
2. Laylo Begimqulova TEMURIY MALIKALARINING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR (Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida).....	13
3. Abduvali Berdiyev O‘ZBEK XONLIKLARINING ERON, AFG‘ONISTON, TURKIYA VA HINDISTON DAVLATLARI BILAN O‘ZARO ELCHILIK ALOQALARI VA UNDAN KO‘ZLANGAN IQTISODIIY - SIYOSIIY MAQSADLAR.....	18
4. Alisher Jalilov SIYOSIIY ELITANING TURKISTONNI MILLIIY-HUDUDIIY CHEGARALANISHIGA MUNOSABATI VA O‘ZBEKISTON SSRning TASHKIL TOPISHI.....	27
5. Бахром Джалолов СОВЕТ ХУКУМАТИНИНГ БОЛАЛАРНИ ХУҚУҚИЙ ХИМОЯЛАШ ТИЗИМИ: МУАММО ВА ЕЧИМЛАР.....	33
6. Sherzod Djurakulov САМАРҚАНД МУЗОФОТИНИНГ ЮҚОРИ ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ ЁДГОРЛИКЛАРИ.....	39
7. Саховат Захидова ХОЖАГОНИЙЯ-НАҚШБАНДИЙЯ ТАРИҚАТИ “ХИМОЙАТ” ТИЗИМИНИНГ СЎНГГИ ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ ИЖТИМОИЙ СИЁСАТИДАГИ ЎРНИ.....	44
8. Икрамжон Исмаилов ЎЗБЕКISTON ЁШЛАРИНИ ХОРИЖДА ТАЪЛИМ ОЛИШЛАРИДА ДАВЛАТНИНГ РОЛИ.....	49
9. Энажон Нишанбаева ИЖТИМОИЙ ШЕРИКЛИК МУНОСАБАТЛАРИНИНГ ТАДРИЖИЙ РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ (ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ МИСОЛИДА).....	57
10. Жамшид Пиримкулов ТОШКЕНТЛИК АДАБИЁТ ВА САНЪАТ НАМОЁНДАЛАРИ (XIX АСР ИККИНЧИ ЯРМИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	63
11. Gulxayo Xasanboyeva O‘ZBEKISTON QISHLOQ XO‘JALIGINING RIVOJLANISHI, TARMOQDAGI ISLOHOTLAR.....	69
12. Рашид Холмуродов ТАРИХЧИЛАР ТОМОНIDAN O‘LKAMIZ ETNOGRAFIYASI VA ETNIK TARIXINING O‘RGANILISHI.....	73



Laylo Mashrabovna Begimkulova,

Fargʻona davlat universiteti

Tarix fakulteti Oʻzbekiston tarix kafedrasi v.b. dotsenti

begimkulova@internet.ru

TEMURIY MALIKALARNING KELIB CHIQISHIGA DOIR AYRIM MULOHAZALAR

(Saroy Mulk xonim va Xadicha begim misolida)

For citation: Laylo M. Begimkulova. SOME CONSIDERATIONS ON THE ORIGINS AND DESTINIES OF TEMURID PRINCESSES (USING SARAY MULK KHANUM AND KHADIJAH BEGUM AS EXAMPLES). Look to the past. 2024, vol. 7, issue 12, pp.13-17

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14497502>

ANNOTATSIYA

Tarixda sharq ayollari davlat idoralarini boshqarishda, fan, madaniyat, sanʼat, maʼnaviyatni yuksaltirishda salmoqli hissa qoʻshganliklarini, ularning dono va zukkoligi, ayollik iffati va salohiyati, mard va jasurligi, Temur va Temuriylar davrida bunday oqila, tadbirkor, donishmand ayollarni koʻplab boʻlganligi, ularning kelib chiqishi hamda, Temuriy malikalar nafaqat ichki, balki xalqaro diplomatik munosabatlarda ham faol ishtirok etganligi, Saroy Mulk Xonim (Bibixonim), Xadicha begim kabi malikalarning ayollar jamiyatining ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etganligi masalalari manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit soʻzlar: Amir Temur, Amir Husayn, Tarmashirinxon, Suyunch Qutlugʻ Ogʻo, Qozonxon, Saroy Mulk xonim, Bayon Sulduz, Ulus Ogʻoni, Xizr Yasuriy, Islom Ogʻo, Tagʻoy Turkon Xotun, Shohgʻarib Mirzo, Muzaffar Husayn Mirzo, Xadicha begim, Sulton Abusayid Mirzo, Zahiridin Muhammad Bobur, Sulton Husayn Boyqaro, Badiuz-Zamon Mirzo, Alisher Navoiy, Moʻmin Mirzo, Iroq, Hirot.

Лайло Машрабовна Бегимкулова,

Ферганский государственный университет

Исторический факультет,

и.о. доцент кафедры истории Узбекистана

begimkulova@internet.ru

О ПРОИСХОЖДЕНИИ ТЕМУРИДСКИХ ПРИНЦЕСС: РАЗМЫШЛЕНИЯ НА ПРИМЕРЕ САРОЙ МУЛК-ХАНЫМ И ХАДИДЖИ-БЕГИМ

АННОТАЦИЯ

Восточные женщины в истории внесли значительный вклад в управление государственными органами, наукой, культурой, искусством, духовностью, их мудростью и

умом, женским целомудрием и потенциалом, мужеством и отвагой, таких умных, предприимчивых, было много мудрых женщин. , их происхождение, а также то, что тимуридские принцессы активно участвовали не только во внутренних, но и в международных дипломатических отношениях, и что такие принцессы, как Сарай Мульк Ханым (Бибиханим), Хадичха Бегим, активно участвовали в общественно-политической жизни женского общества. проанализировано на основе

Ключевые слова: Амир Темур, Амир Хусейн, Тармаширин Хан, Суюнч Кутлуг Аго, Казанский хан, госпожа Сарай Мульк, Байон Сулдуз, Улус Агони, Хизр Ясури, Ислам Ага, Тагай Тюркон Хатун, Шахгариб Мирза, Музаффар Хусейн Мирза, Хадиджа Бегим, Султан Абусаид Мирза, Захиридин Мухаммад Бабур, Султан Хусейн Бойкара, Бадиуз-Заман Мирза, Алишер Навои, Момин Мирза, Ирак, Герат.

Laylo M. Begimkulova,

Fergana State University

Historical Faculty,

Acting Associate Professor of the Department

of History of Uzbekistan

begimkulova@internet.ru

SOME CONSIDERATIONS ON THE ORIGINS AND DESTINIES OF TEMURID PRINCESSES (USING SARAY MULK KHANUM AND KHADIJAH BEGUM AS EXAMPLES)

ABSTRACT

Eastern women in history have made a significant contribution to the management of state agencies, science, culture, art, spirituality, their wisdom and intelligence, feminine chastity and potential, courage and bravery, such intelligent, entrepreneurial, There were many wise women, their origins, and the fact that Timurid princesses actively participated not only in domestic but also in international diplomatic relations, and that princesses such as Saray Mulk Khanim (Bibikhanim), Khadichha Begim actively participated in the social and political life of the women's society. analyzed based on

Index Terms: Amir Temur, Amir Husayn, Tarmashirin Khan, Suyunch Kutlugh Ago, Kazan Khan, Mrs. Saray Mulk, Bayon Sulduz, Ulus Aghoni, Khizr Yasuri, Islam Agha, Tagay Turkon Khatun, Shahg arib Mirza, Muzaffar Husain Mirza, Khadija Begim, Sultan Abusayid Mirza, Zahiridin Muhammad Babur, Sultan Husain Boykara, Badiuz-Zaman Mirza, Alisher Navoi, Momin Mirza, Iraq, Herat.

Dolzarbli:

Manbalar va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida, malikalarning geneologiyasi o'rganilmagan va tadqiq etilishi zarur bo'lgan muhim masalalardan biri ekanligi oydinlashadi. Amir Temur davrida kelin sifatida olib kelingan malikalarning aksariyati e'tiborli xonadon vakillari bo'lgan. Ayniqsa, Chingizxon avlodidan bo'lgan qizlar kelin sifatida tanlangan, ya'ni kelgusida mamlakatning legitimligini ta'minlash uchun ayni masala ustuvor edi. Shuningdek, bugunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda asosan siyosiy jarayonlarda faol qatnashgan yoki siyosiy ta'sir ko'rsatgan malikalar hayoti o'rganilgan. Saroy hayotidan nisbatan uzoq bo'lgan yoki kichik yoshda vafot etgan malikalar geneologiyasi va ularning hayoti tadqiq etilmagan. Shu boisdan ham mazkur masala dolzarbdir.

O'rganish usullari va o'rganilganlik darajasi:

Mamlakatimiz va xorijiy tarixshunos olimlari B.Axmedov, B. Usmonov, M.Abduraimov, A.Muhammadjonov, A.Ziyo, Sh.O'ljayeva, U.Abdullayev, O.Bo'riyev, E.Azimov, X.Dadaboyev, A.Yu.Yakubovskiy, I.M.Mirgaliyev va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning nazariyalari alohida ahamiyat kasb etadi.

Tahlil va natijalar:

1370-yilda Sohibqiron Amir Temur jangda amir Husaynni yengib, uni qatl qildirgach, Movarounnahr hukmronligini o'z qo'liga oladi. Tabiiyki, amir Husaynning bir necha xotinlari bo'lib, haramning ulug' bekasi - Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug' Og'o edi. Sohibqiron Amir Temur maqtulning haramidagi malikalar orasidan Qozonxonning qizi-Saroy Mulk xonimni, Bayon Sulduzning qizi -Ulus Og'oni, Xizr Yasuriyning qizi-Islom Og'oni hamda Tag'oy Turkon Xotunni tanlab olib, idda muddati uch oy o'tgach, o'z nikohiga kiritadi.

Saroy Mulkxonim Chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul xonlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341-yilda tug'ilgan. Qozonxon taxtdan azl etilib, qatl qilingan chog'da Saroy Mulkxonim hali besh yoshda edi. Saroy Mulk xonim balog'atga yetgach, 1355-yilda Movarounnahr hukmdori amir Qozog'onning nabirasi amir Husayn uni nikohiga kiritdi [1:4]. Akademik V.V.Bartold ham o'z asarlarida Saroy Mulkxonim haqida bir muncha to'xtalib o'tgan. U o'zining "Ulug'bek va uning davri" asarida birinchi bor Saroy Mulkxonim haqida Amir Husayn mag'lub etilib, uning xotinlarining bir qismi Amir Temur nikohiga olinishi munosabati bilan to'xtalib o'tgan. Shu o'rinda Amir Temurdan besh yosh kichik ekanligini ham ta'kidlagan edi.

Sohibqiron Amir Temur Saroy Mulk xonimni o'z nikohiga kiritgach, "ko'ragon" unvoniga musharraf bo'ldi. Ko'ragon iborasi mo'g'ulcha so'z bo'lib, "kuyov" degan ma'noni ifodalaydi. Zero, Saroy Mulkxonim mo'g'ul xonlaridan birining qizi bo'lgani tufayli sohibqiron Amir Temur mo'g'ul xonining kuyovi, ya'ni "Amir Temur Ko'ragon" nomini olgan edi [2:18 b].

Sohibqiron Amir Temur malika Saroy Mulkxonimni o'z nikohiga kiritgunga qadar, haramida boshqa xotinlari ham bor edi. Lekin, xon avlodiga mansub Saroy Mulkxonim haramdagi barcha malikalardan ulug'rog'i hisoblanib, "katta xonim" yoxud "Bibixonim" degan unvonga noil bo'ladi. Albatta, bunday e'zozga musharraf bo'lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo'lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroy Mulkxonim zamonasining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql zakovat sohibasi, husn-latofat bobida ham benaziri edi. Saroy Mulkxonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga katta e'tibor qaratgan.

Xadicha begim Sulton Husayn Mirzo Boyqaroning suyuqli xotini edi. Xadicha begim 1451-yilda Hirotda tug'ilib, 1457-yilda Sulton Abusayid Mirzo Hirotni olgach, unga hadya etilgan xos kanizaklardan biri edi. Sulton Abu Said Mirzo Xadicha begimni 1465-yilda o'z nikohiga kiritadi. Sulton Abu Said mirzodan Oqbegim ismli bir qiz ham bo'lgan. 1469-yilda Sulton Abu Said Mirzo Iroqda halokatga uchragach, Hirotda taxtiga o'tirgan Sulton Husayn Mirzo Boyqaro marhum Sulton Abu Said Mirzo haramida Xadicha begimni ko'rib, uni sevib qoladi va shar'iy iddasi (uch oy) tugagach, o'z nikohiga kiritadi. Xadicha begim yosh, go'zal, dimog'dor, yengil tabiat ayol bo'lib, ayni vaqtda tabiatan ichi qoralik va makr-hiylaga moyil edi. Zahiridin Muhammad Bobur mirzo (1483-1530) Xadicha begim haqida: "O'zini oqila tutar edi, vale beaql va purgo'y (ko'p gapiruvchi, ezma) xotun edi, rofiziya (shiiylik mazhabining bir oqimi) ham ekandur",- deb yozadi. Darhaqiqat, Xadicha begim tez fursatda o'zining jozibali husn-latofati-yu makkorona iltifotlari bilan Sulton Husayn Boyqaroni o'ziga rom qilib, haramda ulug' bekalik o'rnini egallaydi. Sulton Husayn Boyqaroning xotinlari va xos kanizaklaridan 14 o'g'il va 11 qizi bor edi [3:16].

Shohg'arib Mirzo (1471-1489), Muzaffar Husayn Mirzolar (1473-1509) Xadicha begimdan tug'ilgan edilar. Xadicha begim o'z farzandi -tantiq va shuhratparast Muzaffar Husayn Mirzoni Sultonning barcha o'g'illaridan ustun qo'yishga jon-jahdi ila harakat qilardi. Binobarin, turli makr-hiylalar ishlatib, ota bilan o'g'illar o'rtasida nizo chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Bu nizolar ko'pincha qonli jangu jadallar bilan tugardi. Sulton Husayn Boyqaro tobora Xadicha begimning makriga uchib, Muzaffar Husayn Mirzodan bo'lak o'g'illariga unchalik iltifot ko'rsatmas va xavf-xatarda yurardi. Xadicha begim o'g'li Muzaffar Husayn Mirzoni ota taxtiga valiahd qilib tayinlatish masalasida xufiyona harakatni boshlab yuboradi. Ammo valiahdlik haqqi taomilga ko'ra, Sultonning katta o'g'li Badiuz-Zamon Mirzoniki (1458-1511) edi. Garchi Sulton Husayn Boyqaro Badiuz-Zamon Mirzoni unchalik suymasa-da, har holda uni rozi qilishi lozim edi. Ayni vaqtda, Alisher Navoiy boshliq saroy ahlining ko'pchiligi valiahdlikka Badiuz-Zamon Mirzoning 11 yashar o'g'li - Mo'min Mirzoni (1486-1497) munosib hisoblar va bu haqda mulohazalarini Sultonga ochiq

bildirgan edilar. Tabiiyki, arkoni davlat orasida bo'layotgan bunday mulohazalar Xadicha beginning hasad olovini alangalatmasdan qo'ymasdi [4:29].

Xulosalar:

Umuman olganda, saltanatda malikalarning o'rni salmoqli bo'lgan. Ular mamlakatning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida faol ishtirok etganlar va o'zlarining mablag'lariga yirik va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar bunyod ettirishgan.

Iqtiboslar/Сноски/References.

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma / So'z boshi, tabdil, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari A. Ahmad va H. Bobobekov. –T.: Sharq, 1997. B. 262. [Sharafuddin Ali Yazdi. Zafarnoma / The beginning of the word, translation, comments and indicators are the authors of A. Ahmad and H. Bobobekov. –T.: East, 1997. P. 262]

2. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur: Temur tarixida taqdir ajoyibotlari. /So'z boshi, arab tilidan tarjima va izohlarni U. Uvatov tayyorlagan. 1 - kitob. -T. : Mehnat, 1992. B. 11. [Ibn Arabshah. The wonderful history of al-maqdur fi Taimur: miracles of fate in the history of Timur. / Introduction, translation from Arabic and comments prepared by U. Uvatov. 1 - book. – T.: Labor, 1992. P. 11.]

3. Abdurazzoq Samarqandiy. Matla' us-sa'dayn va majma' ul-bahrayn / Fors – tojik tilidan tarjima, kirish so'z va izohi lug'atlar tarix fanlar nomzodi A. O'rinboevniki. -T. : Fan. 1969. B. 124-125; Fasix Xavafi. Mudjmal-i Fasixi / Per. predis., primech. i ukazateli D. Yu. Yusupovoy. – T.: Fan, 1980. S. 149. [Abdurazzoq Samarkandi. Matla' us-sa'dayn and majma' ul-bahrayn / Translation from Persian-Tajik language, introduction and commentary by A. Orinboev, Candidate of History. –T.: Science. 1969. P. 124-125; Fasikh Khawafi. Mudjmal-i Fasikhi / Per. predis., primech. i indicator D. Yu. Yusupova. – T.: Science, 1980. P. 149.]

4. Ali Riza Yaqli. Timurlu Devleti Emirleri I- Barlas Boyu: Yadigar Barlas, Tükel Barlas ve Hinduke Barlas // Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi / Journal of Turkish History Researches, Prof. Dr. Bahaeddin Ogel Sayısı Yıl/Vol. 4, Sayı/No. 1 Bahar/Spring 2019. s. 232-245. [4. Ali Riza Yagli. Timurlu Devleti Emirleri I- Barlas Boyu: Yadigar Barlas, Tükel Barlas and Hinduke Barlas // Türk Tarihi Araştırmaları Dergisi / Journal of Turkish History Researches, Prof. Dr. Bahaeddin Ogel Sayısı Yıl/Vol. 4, Number/No. 1 Bahar/Spring 2019. p. 232-245.]

5. Begimkulova, L. M. (2020). Amir Tumor vafotining dastlabki kunlaridagi siyosiy jarayonlarda Shayx Nuriddin va SHohmaliklarning tutgan o'rni. Vzglyad v Proshloe, 3(11). [Begimkulova, L. M. (2020). The role of Sheikh Nuriddin and Shohmaliks in the political processes of the first days of Amir Tumor's death. Vzglyad v Proshloe, 3(11).]

6. Собрание восточных рукописей Академии наук Республики Узбекистан. История. / Составители: Д.Ю.Юсуова, Р.П.Жалилова. – Т: Фан, 1998. – 534 с. [Sobranie vostochnykh rukoposey Akademii nauk Respubliki Uzbekistan. History. / Compiled by: D.Yu. Yusuova, R.P. Jalilova. - T: Science, 1998. - 534 p.]

7. Темур тузуклари. / Тахрир хайъати: Б.Абдуҳалимов ва бошқ. Форсча матндан А.Соғуний ва Ҳ. Кароматов тарж. – Т.: О'zbekiston, 2012. – 184 б. [Timur's rules. / Editorial board: B. Abduhalimov et al. From the Persian text by A. Soghuni and H. Karomatov translation. - T.: Uzbekistan, 2012. - 184 p.]

8. Амир Темур Кўрагон. Темур тузуклари. / сўз боши, табдил, изоҳ муаллифлари Ҳ.Н.Бобобеков, А.Қурбонбеков, И.Сулаймонов. – Т.: Fan va texnologiya, 2014. – 196 б.[Amir Temur Koragon. Timur's rules. / the authors of the introduction, translation, commentary H.N. Bobobekov, A. Gurbanbekov, I. Sulaymonov. - T.: Science and technology, 2014. - 196 p.]

9. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пер. predis. примеч. и указатели Д.Ю.Юсуповой. – Т.: Фан, 1980. – 346 с. [Fasikh Khawafi. Mudjmal-i Fasikhi / Per. Predis. primech. i indicator D. Yu. Yusupova. - T.: Science, 1980. - 346 p.]

10. Фахруддин Али Сафий. Рашахот. / Нашрга тайёрловчи, табдил ва сўнгсўз муаллифи М.Ҳасаний, Луғат, сўнгсўз муаллифи ва нашрга тайёрловчи Б.Умрзоқ. – Т.: Абу

Али Ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 2003. – 536 б. [Fakhruddin Ali Safi. Rashahot. / Preparer for publication, author of introduction and foreword M.Hasani, Dictionary, author of foreword and preparer for publication B.Umrzoq. - T.: Medical publishing house named after Abu Ali Ibn Sina, 2003. - 536 p.]

11. Н.Норкулов. Темурийлар даври маданияти тарихидан лавҳалар. –Хоразм: Урганч, 1996. – Б.45.

12. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони...Б.140. [Davlatshakh Samarkandiy. The garden of poets From Persian B. Akhmedov translation – Tashkent: Science, 1967. – 224 p.]

13. Амир Темур жаҳон тарихида – Тошкент.: Шарқ, 2001. – Б.312.

14. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони...Б.139. [Davlatshakh Samarkandiy. The garden of poets From Persian B. Akhmedov translation – Tashkent: Science, 1967. – 224 p.]

15. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони...Б.170. [Davlatshakh Samarkandiy. The garden of poets From Persian B. Akhmedov translation – Tashkent: Science, 1967. – 224 p.]

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 12 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 7, НОМЕР 12

LOOK TO THE PAST

VOLUME 7, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000